IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
SPECIAL ISSUE

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT RAMZLARINI O‘RGATISHNING USULLARI VA AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: **Begmatov Raximjon Raxmonqulovich**

Toshkent Amaliy Fanlar universiteti “Tarix” kafedrasi katta o’qituvchisi

Erkinova Muslima Baxtiyor qizi
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya
Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yurtimiz tarixi va uning ramzlari haqida tushunchalarning paydo bo‘lishi. O‘zbekiston Respublikasining davlat ramzlari haqida nazariy ma’lumotlar keltirilgan holda ularda boshlang’ich ko’nikmalarni hosil qilish metodlari xususida so’z boradi. O‘quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodlar haqida bayon qilingan bo’lib bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishga muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar
Chaqiriq, sessiya, davlat ramzlari, Oliy Kengash, tarix, ibtido, ajdod, tarbiya, tafakkur, O‘zbekiston Respublikasi, insonparvarlik, tarixshunos.

Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. (Sh.M.Mirziyoyev)

1989-yil 23-iyun kuni Respublika rahbarligiga I.A.Karimov saylandi. Yangi rahbarning faoliyati O‘zbekiston fuqarolarining huquqlarini himoya qilish, toptalgan huquqlarini tiklash kabi oliyjanob va xayrli ishdan boshlandi.

Har bir fuqaro o‘z yurtining tarixini bilishi kerak, albatta. Har bir ota-ona o‘z farzandiga, o‘qituvchilar o‘quvchilariga yashayotgan yurtlarining tarixini o‘rgatishlari yoki so‘zlab berishlari kerak. “Tarixni bilmay turib kelajak qurib bo‘lmaydi”, “Tarixni bilmagan insonning kelajagi ham yo‘q” degan iboralar bejizga emas. Albatta, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng, uning kelajagini bunyod qilish ham qiyinchiliklar bilan o‘tgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” nomli asarlarida yozganlaridek, har bir O‘zbek farzandi “Mening ajdodlarim kimlar bo‘lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turishi, tiklanishi, shakllanish jarayoni qanday kechgan” degan savollarni o‘ziga-o‘ziga berishi kerakligini qayta-qayta uqtirganlar. Albatta, o‘zining yashayotgan o‘lkasining tarixini bilgan farzandning kelajagi ham go‘zal bo‘ladi.

Har bir fan o‘qituvchilari, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari bolalarga tarix haqida boshlang‘ich tushunchani berishlari kerak. Garchi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tarix fani o‘tilmasa ham. Ularga dars jarayonida, mavzular yoritib berilayotgani jarayonlarida qisqacha bo‘lsa ham aytib o‘tishlari kerak. Qiziqarli o‘yinlar yordamida, didaktik materiallar vositasida o‘rgatishlari mumkin. Ma’lumot berayotganda ham, buyuk bobolarimiz haqida ma’lumotlar berishlari mumkin. Ularga qo‘shimcha vazifa sifatida yana uyda qiziqarli ma’lumot topib kelishlarini aytishlari mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida har bir fandan boshlang‘ich bilim bo‘lishi shart. Chunki, 7-12 yoshli bolalar judayam sersavol bo‘lishadi. Ular bergan savollariga aniq va qisqa javob berishlari uchun bu ma’lumotlar kerak bo‘ladi. Bolalarning bergan savollariga o‘qituvchi iloji boricha, mukammal tarzda, bolaga to‘g‘ri tushuntirgan holda javob berishlari kerak.

1990-yil 24-martda bo‘lgan O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining XII-chaqiriq I-sessiyasida O‘zbekistonda prezidentlik boshqaruvi ta’sis etildi va O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi Islom Karimov O‘zbekiston SSR Prezidenti qilib saylandi.

O‘zbekistonning mustaqilligi yo‘lidagi yana bir muhim qadam O‘zbekiston SSR Oliy Kengashning XII-chaqiriq II-sessiyasida (1990-yil 20-iyun) qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Mustaqillik Deklaratsiyasi” dir. Mazkur Deklaratsiyada “Har bir millat o‘z taqdirini o‘zi belgilashi” Deklaratsiya qoidasi bilan kafolatlanishi ta’kidlandi.

Mustaqillikka erishilgandan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi o‘zining davlat ramzlari qabul qildi.

1.O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i-1991-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi XII-chaqiriq VIII-sessiyasida qabul qilingan. Davlat bayrog‘ining uzunligi bo‘ylab o‘tgan to‘q moviy rang, oq rang va to‘q yashil rangli 3 ta endan tarkib topgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi matodir. Uzunligi - 25 cm, kengligi - 125 cm. Har bir rangning eni 40 cmga tengdir. Qizil hoshiyalar - 2.5 cm. Oyning diametri - 30 cm, yulduzning diametri - 6 cm, masofasi - 6 cm.



2.O‘zbekiston Respublikasining davlat gerbi-1992-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi XII-chaqiriq X-sessiyasida qabul qilingan.



O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi quyidagi ko‘rinishga ega: tog‘lar, daryolar va so‘l tomoni bug‘doy boshoqlaridan, o‘ng tomoni esa chanoqlari ochilgan g‘o‘za shoxlaridan iborat chambarga o‘ralgan gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi.

Gerbning yuqori qismida Respublika hurligining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo‘lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi — qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ini ifoda etuvchi chambar lentasining bantida “O’zbekiston” deb yozib qo’yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli ko‘rinishida: Humo qushi va daryolar — kumush rangida;quyosh,boshoqlar, paxta chanoqlari va «O‘zbekiston» yozuvi — oltin rangida;g‘o‘za shoxlari va barglari, Gerbning yuqori qismida Respublika hurligining ramzi sifatida sakkiz burchak tasvirlangan bo‘lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi - qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ini ifoda etuvchi chambar lentasining tog‘lar va vodiy - yashil rangda;chanoqlardagi paxta - oq rangda;lenta - O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining ranglarini aks ettiruvchi uch xil rangda;sakkizburchak - oltin zarhal bilan hoshiyalangan holda havo rangda;yarim oy va yulduzlar - oq rangida tasvirlangan.

3.O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi - 1992-yil 10-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi XII-chaqiriq XI-sessiyasida qabul qilindi.O`zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi O`zbekiston Respublikasi Davlat suverenitetining ramzidir.

O`zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasiga zo‘r ehtirom bilan qarash O`zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir.

Mutal Burhonov musiqasi

Abdulla Oripov so'zi

4.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII-chaqiriq IX-sessiyasida qabul qilingan. U 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirildi. U 6 bo‘lim, 27 bob, 155 moddadan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi moddalar:

4-modda.

O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

5-modda.

O‘zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o‘z davlat ramzlari — bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega.

Davlat ramzlari davlat himoyasidadir.

6-modda.

O‘zbekiston Respublikasining poytaxti — Toshkent shahri.

50-modda.

Har kim ta’lim olish huquqiga ega.

Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi.

Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir.

Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi.

59-modda.

Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarini bajaradilar.

Bu ma’lumotlarni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarga **„Axborot berish“ metodi** orqali o‘rgatadilar.

Metodni olib borish qoidalari:

Dars boshlangan vaqtda o‘tilgan mavzularni mustahkamlash mavzularida o‘quvchilarga qisqa ma‘lumotlar berib boriladi. Albatta, o‘quvchilar diqqat bilan eshitishadi va o‘rganib olishadi.

Yana bir qiziqarli metodlarimizdan biri bu **„Ortiqchasini top“ metodi** bu metoddan barcha fanlarda foydalansa bo‘ladi.

Turli gaplar orasiga bizga kerak bo‘lgan so‘zlar qo‘shib yoziladi va shu gaplar orasidan bizga kerakli bo‘lgan so‘zlarni o‘quvchilar tezkorlik bilan topishlari kerak bo‘ladi.

Bu metodda bolalarga topshiriq beriladi. Berilgan gaplarga e‘tibor bersanglar ortiqcha so‘zlar bor, shu so‘zlarni yig‘ib olsanglar bizning yurtimizning davlar ramzlari hosil bo‘ladi deb o‘quvchilarga tushuntiriladi.

Shuni ta’kidlab o’tish joizki har bir yosh avlodni vatanga bo’lgan sadoqat uning ramzlariga bo’lgan chuqur hurmat ruhida tarbiyalash va ularga bu ramzlarning ma’nosini tushuntirish kata ahamiyatga egadir. Mustaqil O’zbekistonimizda yosh avlod tarbiyasi va ularning teng huquqlilik asosida bilim olishi uchun yaratilayotgan sharoitlar tahsinga sazovar va shu o’rinda o’qituvchilar salohiyati va

bilim ko'nikmalari ham maqtovga sazovardir. Bu kadrlarning barchasi yosh avlodni yurtimizga vauning ramzlariga nisbatan cheksiz hurmat ruhida tarbiyalanishida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.E.Xoliqova "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv qo'llanmasi. Toshkent-2021.
2. I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"
3. Olim Sultonmurod. Davlat ramzlari muqaddas. 2013-yil, 10-aprel 2-son.
4. Abdurahmanova, M., & Nurmatova, S. (2022). QORA RANG TALQINI HAQIDA. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 74-78. Abdurahmanova, M., & Nurmatova, S. (2022). QORA RANG TALQINI HAQIDA. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 74-78.

WORDLY
KNOWLEDGE